

## OILADA YUZAGA KELADIGAN KELISHMOVCHILIK VA JANJALLARNING BOLA RUHIYATIGA TA’SIRI

*Hamrayeva Gulmira Nusratullayevna*

*Samarqand viloyati Qo‘shrabot  
tumani MMTBga qarashli 32-umumiy  
o‘rta ta’lim maktabi psixologi*

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada oiladagi kelishmovchilik va janjallarning bola ruhiyatiga ko‘rsatadigan psixologik ta’siri yoritiladi. Shuningdek, oilaviy nizolarning bolaning emotsional holati, xulq-atvori va ijtimoiy rivojlanishiga ta’siri hamda ularni oldini olishning psixologik yo‘llari tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** oila, kelishmovchilik, janjal, bola ruhiyati, emotsional holat, stress, tarbiya, psixologik muhit.

### KIRISH

Oila bolaning ilk tarbiya maskani va ruhiy rivojlanishida asosiy muhit hisoblanadi. Oiladagi sog‘lom munosabatlar bolaning emotsional barqarorligi va shaxs sifatida shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Aksincha, oiladagi doimiy kelishmovchilik va janjallar bola ruhiyatiga salbiy ta’sir qilishi mumkin. Oilaviy nizolar turli sabablar tufayli yuzaga keladi. Moddiy muammolar, o‘zaro tushunmovchilik, hissiyotlarni boshqara olmaslik yoki muloqot yetishmasligi shular jumlasidandir.

Psixologik jihatdan bola oiladagi muhitni juda nozik qabul qiladi. Ota-onalar o‘rtasidagi janjallar bolaning o‘zini xavfsiz his qilmasligiga sabab bo‘lishi mumkin. Doimiy nizolar bola ruhiyatida qo‘rquv, xavotir va tushkunlik holatlarini yuzaga keltiradi. Ayrim hollarda bu bolaning o‘qishga bo‘lgan qiziqishiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Oiladagi keskin muhit bolalarda agressivlik yoki tortinchoqlik kabi xulq-atvor o‘zgarishlariga sabab bo‘lishi mumkin. Bola kattalarning xatti-harakatidan ta’sirlanib, o‘sha munosabatlarni takrorlashga moyil bo‘ladi. Ayrim bolalarda o‘ziga bo‘lgan ishonch pasayadi va tengdoshlar bilan muloqot qilishda qiyinchiliklar kuzatiladi. Bu esa ijtimoiy moslashuvga ta’sir qiladi.

Bunday holatlarning oldini olishda oilada sog‘lom muloqot muhim ahamiyatga ega. Ota-onalar muammolarni janjal orqali emas, tinch va hurmat asosida hal qilishlari kerak. Farzand oldida qo‘pollik va keskin munosabatlardan saqlanish zarur. Mehribonlik va qo‘llab-quvvatlash bolaning ruhiy barqarorligini mustahkamlaydi.

Maktab psixologi ham oilaviy muammolar ta'sirida qiynalayotgan bolalar bilan individual ishlashi kerak. Psixologik suhbat va qo'llab-quvvatlash bolaning emotsional holatini yaxshilashga yordam beradi. Ota-onalarning bir-biriga bo'lgan hurmati va samimiy munosabati bolaga ijobiy namuna bo'lib xizmat qiladi. Sog'lom oilaviy muhit barkamol avlod tarbiyasining muhim omilidir.

Bola tevarak-atrofdagi narsalarga va yuz berayotgan voqealarga beparvo munosabatda bo'la olmaydi. U har bir hodisa, har bir voqeadan juda ta'sirlanadigan bo'ladi. Bu yoshdagi bolalarning tabiati hayajonli va ta'sirchan (emotsional) bo'ladi. Lekin ularda yuz beradigan xilma-xil emotsiyalar hali u qadar barqaror bo'lmaydi. Ulardagi his-tuyg'u tez o'zgarib, bir tuyg'u ikkinchisi bilan tez almashinib turadi. Bu yoshdagi bola bir narsadan darrov xursand bo'lib, sharaqlab kulib turib, ayni vaqtda arzimagan narsadan tez xafa bo'lishi hech gap emas.

Amerikalik psixolog, psixopratevit Erik Bernning fikricha, individ olamga kelib o'sib, rivojlanar ekan, u atrofda, ayniqsa, oiladigi ijtimoiy munosabatlarni diqqat bilan kuzatadi (har kuni ko'z oldida yurgan kishilarni kuzatmasdan iloji ham yo'q), bola atrofda gilardan, ayniqsa, qiz bola onasidan, o'g'il bola otasidan hayot tarzini, o'zaro munosabat va muloqot tajribasini to'plab boradi. Yaqin odamlari: otasi va onasining xatti - harakati, gap - so'zi, hulq - atvori, oiladigi va atrofdagi kishilar bilan munosabatlari o'sib rivojlanayotgan bolaning, o'smirning, yigitning (qizning) ongida, ong ostida mustahkamlanib boradi.

Erik Bernning ta'kidlashicha, bolalik "hayot stsenariyi"si shaxsning keyingi hayot munosabatlarini, odamlar bilan, kechishini belgilaydi. Oilada shakllangan odatlar, hayotiy tasavvurlar-"hayot stsenariysi" shaxsning ong ostida mustahkamlanib, uning keyingi hayotidagi xatti-harakatida, xulq – atvorida namoyon bo'ladi.

Bola faoliyati atrof olamni va o'zini bilishi, kattalar va tengdoshlar bilan bo'lgan munosabat jarayonida xilma - xil emotsiya hamda hissiyotlarni o'zidan o'tkazadi. U atrofda ro'y berayotgan hamda o'zi qilayotgan narsalarga muayyan munosabatda bo'ladi. Ana shu munosabat bolada ma'lum bir emotsiya va hissiyotlarni tug'diradi. Emotsiya va hissiyotlar ham voqelikni aks ettirishning o'ziga xos shakli. U bolaning atrof olamga bo'lgan munosabati, biror-bir ehtiyojining qondirilishi yoki qondirilmaslgi tufayli vujudga keluvchi ichki kechinmalarda namoyon bo'ladi.

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarda emotsiya va hissiyotlar tizimi endi-endi shakllanayotgan bo'ladi. Shuning uchun ularning emotsiyalari ular kechirayotgan hissiyotlarning namoyon bo'lishi emas, balki ko'proq oliy hissiyotlarning shakllanishi uchun umumlashtirilishi kerak bo'lgan materialdir.

2. Maktabgacha yoshdagi bolalar emotsional sohaning rivojlanish davomida emotsional kechinmalarni uyg'otuvchi ob'ektdan sub'ekt munosabat ajralib boradi. Bola qanchalik kichik bo'lsa, uning uchun ob'ekt tavsifi bilan sub'ektiv kechinmalari tasnifi shunchalik bir-biriga yaqin bo'ladi.

3. Maktabgacha yoshda emotsiya va hissiyotlarning dinamik va mazmuniy tomonlari rivoj topadi. Mazmun tomonining rivojlanishi atrof olam haqidagi bola bilimining kengayishi va chuqurlashishi, bola barqaror (doimo bir xil) munosabatda bo‘ladigan predmet va hodisalarning ko‘payib borishi bilan taqozolanadi.

Bola emotsiyalarining rivojlanishi muayyan ijtimoiy vaziyatlar bilan bog‘liq. Bolaning vaziyatni tushunish, vaziyat va undagi o‘zgarishlarni boshdan kechirish muayyan emotsional holatni hosil qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun oliy hissiyotlarning qo‘shilib ketganligi xos. Bolalar estetik kechinmalarni chiqaruvchi obyekt va hodisalarni ham, estetik kechinmalarini uyg‘otuvchi obyekt va vositalarni ham, intellektual kechinmalarni yuzaga keltiruvchi ob‘ekt va hodisalarni ham “yaxshi” degan umumiy baho bilan baholaydilar. Boshqacha aytganda, bu davrda bola uchun yaxshi narsa – bu chiroyli, bu mehribon, bu qiziqarli narsadir. Aynan bu obyekt o‘zida estetik, axloqiy hissiyotlarni jamlagan kechinmalarni uyg‘otadi.

Keyinchalik maxsus axloqiy va estetik mezonlar asosida analiz qilish va baholash ko‘nikmasi shakllangach, sikretik (qo‘shilib birlashib ketgan) hissiyotlar estetik axloqiy intellektual hissiyotlarga diffirensiyallashadi (ajraladi).

Oliy hissiyotlar 2-3 yoshdan boshlab shakllana boshlaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy hayot talablari, ya’ni axloqiy me’yorlarni bajarish yoki bajarmaslikka bog‘liq ravishda muayyan kechinmalar yuzaga keladi. Burch hissining ilk bor namoyon bo‘lishi 4-5 yoshlarga to‘g‘ri keladi. Chunki bu davrda mavjud bilimlar, ko‘nikma va malakalar asosida bolada axloqiy ong shakllana boshlaydi. Chunki bu davrda bolalar kattalarning talablarini tushuna boshlaydi va ularni o‘z xatti-harakati hamda boshqalarning xulq-atvoriga tatbiq eta boshlaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda faxr va uyat kabi etik kechinmalar ham paydo bo‘ladi. Maktabgacha yosh davrining oxriga kelib oliy xissiyotlar tobora ko‘proq bola xulq-atvorining motivlariga aylanib boradi.

Afsuski, barcha oila ham ota-oan va ular dunyoga keltirgan farzandlar bilan to‘liq bo‘lavermaydi. Taqdir taqazosi bilan ayrim oilalarda nizolar kelib chiqadi va uning oqibati sifatida nikoh barbod bo‘ladi.

Vaziyatga ko‘ra bolaning hissiyot va emotsiyalari ham ijobiy (muhabbat, xursandchilik), ham salbiy (jahl, nafrat) bo‘lishi mumkin. Agar bola ehtiyojining qondira olish imkoniyatiga ega bo‘lsa ijobiy kechinmalar (stenik kechinmalar) hosil bo‘ladi. Bordi-yu, vujudga kelgan vaziyatda bola o‘z ehtiyojini qondirish imkoniyatiga ega bo‘lsa, salbiy (astenik) emotsional kechinmalar paydo bo‘ladi.

Emotsiyalar va hissiyotlar bola faoliyati kechadigan ijtimoiy-psixologik vaziyat bilan bog‘liq. Emotsiogen vaziyatlar, ya’ni kuchli kechinmalarni uyg‘otuvchi vaziyatlar yangiligi, g‘ayrioddiylik bilan ajralib turadi. Bola kattalarga nisbatan ancha

ko'p emotsiyalarni boshdan kechiradi. Buning sababi shundaki, bolaning hayoti tajribasi hali kam bo'lganligi uchun ko'p narsa unga g'aroyib va yangi bo'lib ko'rinadi.

Oiladigi noto'g'ri munosabatlar ba'zida bir tomonlama affektiv bog'liqlikni (ko'pincha onaga bo'lgan bog'liqlikni) yuzaga keltiradi. Bunda bolaning tengdoshlari bilan muloqotda bo'lish ehtiyoji susayadi, bolaning xulq-atvori haddan tashqari kattalarga bog'liq bo'lib qoladi, bola hatto kuchli salbiy kechinmalarni his qilishi mumkin.

Shuni ta'kidlash kerakki, oiladagi janjallar ayrim bolalarda qo'rqqoqlik, shubhalanish, xafa bo'lish hissini ortishiga olib borsa, ayrim bolalarda esa yovuzlik, shavqatsizlik, qahr -g'azab hislarini ortirishga olib kelgan. Har ikkala holatda ham janjalning bola emotsional xolatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi namoyon bo'lmoqda.

### XULOSA

Xulosa qilib aytganda, oiladagi kelishmovchilik va janjallar bola ruhiyatiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli oilada sog'lom psixologik muhit yaratish va nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish muhim ahamiyatga ega.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Белкина В.Н. Детская психология: учебное пособие. —Москва “Юрайт” 2019, — 170 с
2. Линде Н.Д. Телесность в эмоционально-образной терапии// Междисциплинарные проблемы психологии телесности: Материалы межведомственной научно-практ. конф. М.: Изд-во Моск. гуманит. унта, 2004, С. 486-492 стр
3. Смирнова Е.О. Детская психология. — СПб. Питер, 2016
4. Эмоциональные нарушения в детском возрасте и их коррекция / Под ред В. В. Лебединского, О. С. Никольской, Е. Р. Баенской, М. М. Либинг.- М 1990. 165-стр
5. G'oziyev E.G'. Ontogenez psixologiyasi. — Toshkent. Noshir, 2010. — 306 b